

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
XALQARO JURNALISTIKA FAKULTETI**

REFERAT

Mavzu: O'zbekiston va Yaponiya hamkorligi

Tayyorladi: 4-bosqich talabasi Nurbek Abduxalilov

Toshkent - 2010

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirib bormoqda. Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida O'zbekiston barcha taraqqiyparvar davlatlar bilan mafkurasidan qat'i nazar, o'zaro teng manfaatli hamkorlik o'rnatishga tayyor ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Mamlakatimiz uzoq davrlardanoq, sahrodagi suvga intiq jonzotlar suvga intiq bo'lganidek istiqloлга tashna edi. Nihoyat shu kunlar unut bo'lib, mana mustaqilligimizning yigirma yilligini qarshi olishga tayyor turibmiz. O'z o'rnida ko'plab rivojlangan mamlakatlar yurtimizga katta imkoniyatlar va buyuk kelajakli mamlakat sifatida qaray boshladi. Boshqa mamlakatlar qatorida Yaponiya ham mamlakatimizga katta ishonch bildirgani holda katta miqdorda sarmoyalar olib kirdi. Nihoyat, O'zbekiston 71-bo'lib, JICA — Xalqaro hamkorlik bo'yicha yapon agentligiga ro'yxatga olindi.

Hozirgi davrda xalqaro munosabatlar globallashtayotgan bir paytda biror bir mamlakat yoki biror xalq o'ziga to'g'ri keladigan, manfaatlari uyg'unlashadigan hamkor davlatni topishi va aloqalarni takomillashtirish zaruriy holat.

O'zbekistonning iqtisodiy sohada erishayotgan yutuqlari, xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei muttasil oshib bormoqda. Mamlakatingizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilgani, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari aniq va to'g'ri ko'rsatib berilgani erishilayotgan ulkan yutuq va marralarda muhim omil bo'layotir deydi — Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari instituti ijrochi deriktori yaponiyalik Tetsuji Tanaka mamlakatimiz ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida.

O'zbekiston bilan Yaponiya hamkorlik aloqalarini uch bosqichga ajratsak bo'ladi:**1-bosqich;** 1991 yilning 28 dekabrda mustaqilligimizni tan olgan holda va 1992 yil yanvar oyida diplomatik aloqalarni o'rnatilishi. Birinchi bosqichdayoq, Tashqi Ishlar Vazirligining deligatsiyasi va Xalqaro Savdo Sanoati vazirligi yurtimizga tashrif buyurishadi. O'zbekistonga birinchi yaponiyalik elchi Ukeru Magasaki bo'lgan. Uning faoliyati ikki davlatlarning madaniyatini, va iqtisodi munosabatlarni kengaytirishdan iborat bo'lgan.

2-bosqich; 1994 yilda Prezidentimiz I.A.Karimov Tokyoda bo'lib o'tgan safarlari. Yaponiya hukumati iqtisodiy yordam berish uchun tijorat kreditlarni ajratadi. Xususan, Eksimbank xususiylashgan korxonalar, kichik o'rta biznes bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun 50 million AQSh dollari miqdorida kredit ajratadi.

3-bosqich; 2002 yil Prezidentimiz Yaponiya mamlakatiga rasmiy tashrif buyurib, o'zaro strategik hamkorlik aloqalarini o'rnatishadi va bu hozirga qadar o'z samarasini berib kelmoqda.

2011 yilning 8-10 fevral kunlari Prezidentimiz Islom Karimov Yaponiya Bosh vaziri Naota Kanning taklifiga binoan, rasmiy tashrif bilan kunchiqar davlatda bo'ldi.¹

Muzokaralar chog'ida tomonlar O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi munosabatlarning bugungi holati va ularni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan, hamkorlikning keng ko'lamli yo'nalishlari bo'yicha samarali va batafsil muloqot o'tkazdilar. Tomonlar O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan so'ng va 1991 yil dekabr oyida davlatlarimiz o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatilganidan keyin ikki tomonlama aloqalar teng huquqlilik, konstruktiv hamkorlik va manfaatlarni o'zaro hurmat qilish tamoyillari asosida izchil rivojlanib kelayotganini ta'kidladilar. Prezidentimizning 1994 yil may oyidagi Yaponiyaga ilk tashrifi bilan o'zaro uzoq muddatli va keng ko'lamli munosabatlarning mustahkam asosi yaratildi. Tokioda 2002 yil iyul oyida imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Yaponiya o'rtasidagi Do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot O'zbekiston — Yaponiya oliy darajadagi hamkorligi rivojining amaliy ifodasi bo'ldi.

Taraqqiyot negizida olib borilgan islohotlar (siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ta'lim sohalaridagi) yapon millatining qadriyatlari, diniy aqidalari, madaniy tarixi va urf-odatlarini hisobga olgan holda amalga oshirildi.

Yaponiyada nashr etiladigan haftalik «Sekay Nippo» gazetasi sahifalarida mamlakatimizning bugungi hayoti va O'zbekiston-Yaponiya hamkorligiga bag'ishlangan maqola e'lon qilingandi.

Maqolada yillar mobaynida O'zbekiston tomonidan bosib o'tilgan mustaqil taraqqiyot yo'li ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat barpo etish, mamlakat barqarorligi va xalq farovonligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar yo'lining to'g'ri tanlanganidan dalolat berishi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar e'tirof etilar ekan, o'quvchilar e'tibori mamlakatda 2008 yil 1 yanvardan o'lim jazosining bekor qilinishi, «Xabeas korpus» huquqiy institutining faoliyat yuritishi, «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun va «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlarning kuchga kiritilganiga qaratiladi.

«Sekay Nippo» gazetasi mustaqillik yillarida O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarining rivojlanish dinamikasi 2002 yilda imzolangan «O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Deklarasiya»ga muvofiq tarzda barqaror davom etganini qayd etadi.

¹ www.uza.uz. 2011 yil fevral O'zbekiston Milliy axborot agentligi sayti

O'zbekistonning yaqin hamkorlaridan biri bo'lgan Yaponiya mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni keng qo'llab quvvatlaydi. O'zbekistonda Yaponiyaning JISA va JETRO agentliklari vakolatxonalari, shuningdek, ko'plab yirik kompaniyalari faoliyat yuritadi.¹

O'zbekistonda mashinasozlik, yengil sanoat, ichki va tashqi savdo, transport xizmati ko'rsatish va sayyohlik sohalari bo'yicha ko'plab investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Qo'shma loyihalarning samarasi sifatida Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan «Isuzu» markali avtobuslar, yuk mashinalari, yuk ko'taruvchi kranlarini aytib o'tish mumkin.

“Taraqqiyotga rasmiy yordam” dasturi doirasidagi hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kelishuvga erishildi. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida “Taraqqiyotga rasmiy yordam” dasturi doirasida iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi memorandum imzolandi. Unga ko'ra, “Qarshi — Termiz” temir yo'li uchastkasini elektrlashtirish loyihasini amalga oshirish uchun O'zbekistonga uzoq muddatli imtiyozli iyenali kredit ajratilishi ko'zda tutilgan.

Endi, Yaponiya bilan O'zbekistonning taraqqiyot yo'lidagi umumiylik, o'xshashlikka qaytadigan bo'lsak, bilasiz, qishloq xo'jalik sohasidagi mahsulotlar ichida an'anaviy ekinlar — sholi (Yaponiyada), paxta (O'zbekistonda) asosiy o'rin tutadi. Har ikki mamlakat oldida ham bir xil muammo: cheklangan yer va suv resurslaridan unumli foydalanish masalasi turadi. Shu nuqtai nazardan, kechagi uchrashuvda irrigatsiya sohasida ikki davlat qo'lga kiritgan tajribalardan foydalanish maqsadida o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilgani ayni muddao bo'ldi.

O'zbekiston – Yaponiya Inson Resurslarini Rivojlantirish Markazi 2001 yildan buyon davlatimizda samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Mazkur jamoat tashkilotining maqsadi O'zbekistonda ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun xodimlarni tayyorlab berish, shuningdek Yaponiya bilan qiziquvchi o'zbekistonliklarga turli xil axborot, Yaponiya madaniyati va tilini o'rgatish orqali mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamfirkrlkni chuqurlashtirish va do'stlik aloqalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Shuningdek, O'zbekiston ham har qanday vaziyatda Yaponiyaga o'zining zaruriy yordamini ayamaydi. Bu esa mazkur ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytiradi. Biz uzoqqa bormasdan, yaqinda Yaponiyada ro'y bergan tabiiy ofatlar davri tahliliga to'xtalamiz. Joriy yilning 11 martidagi yer silkinishi esa yaponiyaliklar hayotidagi eng kuchli, Tinch okeani hududida so'nggi 110 yil ichida ro'y bergan yirik beshta zilzilalardan biri sifatida tarixdan joy oldi. Gap shundaki, dastlabki ma'lumotlarda uning kuchi Rixter shkalasi bo'yicha 8,8, ayrim manbalarda esa 8,9 ball deya keltirilgan edi. Keyinchalik bunga aniqlik kiritildi va yer silkinishi 9 ballga teng bo'lgani aytib o'tildi. Mutaxassislar bu gal talafotlar ko'lamini juda katta hududni qamrab olganini zilzilaning odatdagidan ancha uzoq vaqt davom

¹ <http://www.JICA.go.jp/Uzbekistan/English>

etgani bilan ham izohlashmoqda. Misol uchun, 1995 yildagi yer silkinishi 15 soniya davom etgan bo'lsa, 11 martdagi naqd 5 daqiqa kuzatildi. Okeanda yuzaga kelgan sunamining Gavayi orollaridan o'tib, AQShning Kaliforniya shtati va hatto Chili qirg'oqlariga qadar yetib borgani tabiat injiqligi naqadar jiddiy ko'rinish olganiga yana bir dalildir.¹

Yaponiya Bosh vaziri Naoto Kan o'tkazilgan matbuot anjumanlaridan birida mamlakat Ikkinchi jahon urushidan keyingi eng og'ir kunlarni boshidan kechirayotganini ta'kidladi. Darhaqiqat, zilzila, sunami va AES bilan bog'liq talafotlar mamlakatni murakkab ahvolga solib qo'ydi. Yaponiya Imperatori Akixito televidenie orqali o'z xalqiga qilgan murojaatida, yuz bergan voqealardan qattiq qayg'uda ekanini bildirib, umidsizlikka tushmaslikka, bir-birlariga yordam berishga, mehribon bo'lishga chaqirdi.

Ko'plab yer silkinishlar azobini tortgan O'zbekistonda birodar yapon xalqining boshiga tushgan bu og'ir sinov haqidagi mudhish xabar qalbda qattiq iztirob bilan o'zbek xalqi yaponiyalik do'stlarining qayg'usiga ham, xursanchiligiga ham doimo sherikdir deya qarshi olindi.

Mamlakatimiz xalqi ofat sodir bo'lgandan buyon o'tgan kunlar davomida Yaponiya aholisi taqdirning fojiali zarbasini mardlarcha fidokorona bartaraf etayotganini hayajonda, ushbu falokat tez fursatlarda chekinishiga xayrixohlik bilan kuzatdi. Zilzilaning fojiali oqibatlariga, og'ir judoliklarga qaramasdan, yapon xalqi ushbu ko'rgiliklarni vahimalarsiz, matonat va ahillik bilan qabul qildi.

Zotan, xalqlarimizni ko'p asrlik tarixiy va madaniy rishtalar bog'lab turadi. Yaponiya mamlakatimizning yigirma yillik mustaqil taraqqiyoti davomida ko'plab muhim ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda do'stona yordam berayotganini o'zbekistonliklar yaxshi bilishadi va qadrlashadi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov jahonning yetakchi davlatlari rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib tabiiy ofat sodir bo'lgan kun — 11 martning o'zidayoq Yaponiya hukumati va xalqiga dahshatli fojia munosabati bilan o'zining chuqur hamdardligini bildirib, o'zbekistonliklar yapon xalqining boshiga tushgan falokat va o'rnini hech bir narsa bilan to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotishlarga sherik ekanligini qayd etdi.

O'zbekiston rahbariyatining qarori bilan Yaponiyada tabiiy ofat oqibatida jabrlanganlarga insonparvarlik yordami ko'rsatildi. Ushbu tadbirning xalqimiz tomonidan asrlar davomida saqlanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan insonparvarlik, olijanoblik, o'zaro yordam va muruvvat kabi qadriyatlarni o'zida mujassam etib kelgan Navro'z ayyomi kunlarida amalga oshirilgani chuqur ramziy ma'noga egadir.

¹

Yana shu narsani alohida ta’kidlab o’tishim joizki, Yaponiya qazilma boyliklari jihatidan juda kambag’al mamlakatdir, lekin shunga qaramay tosh ko’mir, qurg’oshin va rux, neft, va boshqa qazilmalarni uchratish mumkin. Ammo mamlakat tabiiy resurslarga kambag’al bo’lgani uchun, xom-ashyo import qiluvchi mamlakat hisoblanadi.

TABIIY OFATLARGA SHARH

Inson tabiat inijliklari oldida ojiz ekani shu yilning 11 mart kuni Yaponiyada ro’y bergan kuchli zilzila va u keltirgan mudhish oqibatlar misolida yana bir karra namoyon bo’ldi. Ushbu voqea turli telekanallar, internet saytlari hamda boshqa ommaviy axborot vositalarining asosiy e’tiboridagi mavzulardan biri bo’lib qoldi. Dunyo ahli yapon xalqining aql-zakovati, tadbirkorligi, o’z burchiga va vazifasiga vijdonan yondashib, qisqa fursat ichida davlatni eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga olib kirganiga doimo hayrat hamda havas bilan qaragan bo’lsa, bugungidek og’ir damlarda sinovlarni sabr-bardosh, vazminlik va hamjihatlik ila yengib o’tishga intilayotganiga yana bir bor tahsinlar aytishmoqda.

Bilasiz, “kunchiqar yurt” sayyoramizdagi seysmik jihatdan eng faol hududda joylashgan. Shu bois, bu yerda kunda-kunora turli tusdagi yer silkinishlari qayd etib turiladi va mahalliy aholi ham ushbu jarayonga tabiiy hol sifatida qaraydi. Zilzila vaqtida ularning ortiqcha sarosimaga berilmay, vaziyatdan kelib chiqib, to’g’ri harakatlanishga odatlangani bunday ofat oqibatida kuzatilishi mumkin bo’lgan yo’qotishlar ko’lamining kamayishida asosiy omillardan biri bo’lmoqda. Qolaversa, yuksak texnologiyalar sohasida ancha ilgarilab ketgan yapon mutaxassislarining seysmik o’zgarishlarni avvaldan aniqlab, xalqni tezda ogohlantirish borasida erishayotgan yutuqlari, sa’y-harakatlari ham talafotlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etayotir.¹

11 mart kuni qayd etilgan, avvalgilaridan ancha farq qilgan bu galgi yer silkinishi chog’ida ham odamlar xavfsiz joylarda o’zlarini saqlashga erishdilar. Ammo oradan bir necha daqiqa o’tib, okeanda paydo bo’lgan ulkan sunami vaziyatni butunlay o’zgartirib yubordi.

Tabiiy ofatdan, ayniqsa, Senday, Kesenuma, Ishinomaki, Natori, Yuriagi, Aragama, Sanriku, Kamaisi, Ichixara, Ivaki, Asaxikava kabi shaharlar katta zarar ko’rdi. Bu yerlardagi minglab turarjoy binolari, ko’priklar, yo’llar vayronaga aylandi, avtomobillar, bir qancha kemalar foydalanishga yaroqsiz ahvolga keldi, mahalliy aeroportlar, temiryo’llar faoliyati izdan chiqdi. Internet xabarlariga qaraganda bu to’fondan 11 ming 872 kishining hayotdan ko’z yumgani, 18 ming 200 dan ortiq odamning taqdiri noma’lum ekani aytilgan. Lekin bu yakuniy xulosa emas, qurbonlar soni kun sayin ortib bordi. Qidiruv ishlarida AQSh, Xitoy, Germaniya, Yangi Zelandiya, Shveytsariya, Singapur, kabi mamlakatlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti

¹ “Mohiyat” gazetasi 2011 yil 8 aprel (554)

hamda yana bir qancha xalqaro tashkilotlar vakillari yaqindan ko'maklashdilar. Shuningdek, 90 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilot bu borada o'z yordamini taklif qilgan.

“Biz tabiiy ofatlar bilan juda ko'p ro'baro' kelganmiz va shuning uchun ham doimo bunday favqulodda holatlarga tayyor turardik. Lekin o'sha kuni ro'y bergan zilzila hamda sunami tasavvurimizga sig'maydigan darajada edi. Ko'z ochib-yumguncha hammayoqni suv yuvib ketdi”, deydi mo'jiza tufayli omon qolganlardan biri, 60 yoshli Xiromitsu Shinikava Yaponiya OAVlariga intervyu berganida.

Xiromitsuning hayotda qolgani chindan ham mo'jiza sifatida jahondagi barcha telekanallarda namoyish etildi. Gap shundaki, u sunami xavfi e'lon qilinganidan so'ng bir necha daqiqa o'tib, uyidan o'zi uchun kerakli bo'lgan narsalarni olib kelishga borgan edi. Ammo ortga qaytishga ulguradi. Ulkan suv to'lqinlari uni naqd okean tomonga oqizib ketdi. Uyining ajralib chiqqan tomiga mahkam yopishib olgan kekxa Xiromitsu yordam berishlarini kuta boshladi. Ammo shu yaqin atrofdan parvoz qilib o'tayotgan vertolyotlar ham, kemalar ham ha deganda uning madad so'rab qilayotgan ishorasini ko'ravermadi. Bu esa jabrdiydalarning yashab qolishga bo'lgan umidini so'ndira boshladi. Taqdirni qarangki, oradan naqd ikki kun o'tgandan keyingina qutqaruvchilar suv yuzasidagi tirik jonni aniqlashdi. O'sha kunlari yangragan bunday xushxabarlarni dunyodagi barcha xuddi o'zinikidek qabul qildi. Chunki bu inson taqdiri bilan bog'liqdir.

“Kunchiqar yurt” tarixida ayanchli oqibatlariga sabab bo'lgan bir qancha zilzilalar kuzatilgan. Jumladan, 1707, 1896, 1923 va 1995 yillarda ro'y bergan yer silkinishlari qurbonlar soni va vayronalar ko'lamini jihatidan eng yiriklari hisoblanadi. Aytaylik, 1923 yilning sentyabrida Kanto prefekturasida sodir bo'lgan 8,3 balli zilzila Tokio, Yokohama, Yokosuka kabi sakkizta yirik shaharni butunlay xarob ahvolga solib qo'ygan edi. 1995 yilda port shahar — Kobeda qayd etilgan tabiiy ofat(7,3 ball) ham katta yo'qotishlarga sabab bo'lgandi.¹

Joriy yilning 11 martidagi yer silkinishi esa yaponiyaliklar hayotidagi eng kuchli, Tinch okeani hududida so'nggi 110 yil ichida ro'y bergan yirik beshta zilzilalardan biri sifatida tarixdan joy oldi. Gap shundaki, dastlabki ma'lumotlarda uning kuchi Rixter shkalasi bo'yicha 8,8, ayrim manbalarda esa 8,9 ball deya keltirilgan edi. Keyinchalik bunga aniqlik kiritildi va yer silkinishi 9 ballga teng bo'lgani aytib o'tildi. Mutaxassislar bu gal talafotlar ko'lamini juda katta hududni qamrab olganini zilzilaning odatdagidan ancha uzoq vaqt davom etgani bilan ham izohlashmoqda. Misol uchun, 1995 yildagi yer silkinishi 15 soniya davom etgan bo'lsa, 11 martdagi naqd 5 daqiqa kuzatildi. Okeanda yuzaga kelgan sunaming Gavayi orollaridan o'tib,

¹ “Adolat” gazetasi 2011 yil 1 aprel juma (820)

AQShning Kaliforniya shtati va hatto Chili qirg'oqlariga qadar yetib borgani tabiat inijligi naqadar jiddiy ko'rinish olganiga yana bir dalildir.¹

Yaponiya Bosh vaziri Naoto Kan o'tkazilgan matbuot anjumanlaridan birida mamlakat Ikkinchi jahon urushidan keyingi eng og'ir kunlarni boshidan kechirayotganini ta'kidladi. Darhaqiqat, zilzila, sunami va AES bilan bog'liq talafotlar mamlakatni murakkab ahvolga solib qo'ydi. Yaponiya Imperatori Akixito televidenie orqali o'z xalqiga qilgan murojaatida, yuz bergan voqealardan qattiq qayg'uda ekanini bildirib, umidsizlikka tushmaslikka, bir-birlariga yordam berishga, mehribon bo'lishga chaqirdi.

Ko'plab yer silkinishlar azobini tortgan O'zbekistonda birodar yapon xalqining boshiga tushgan bu og'ir sinov haqidagi mudhish xabar qalbda qattiq iztirob bilan o'zbek xalqi yaponiyalik do'stlarining qayg'usiga ham, xursanchiligiga ham doimo sherikdir deya qarshi olindi.

Mamlakatimiz xalqi ofat sodir bo'lgandan buyon o'tgan kunlar davomida Yaponiya aholisi taqdirning fojiali zarbasini mardlarcha fidokorona bartaraf etayotganini hayajonda, ushbu falokat tez fursatlarda chekinishiga xayrixohlik bilan kuzatdi. Zilzilaning fojiali oqibatlariga, og'ir judoliklarga qaramasdan, yapon xalqi ushbu ko'rgiliklarni vahimalarsiz, matonat va ahillik bilan qabul qildi.

Zotan, xalqlarimizni ko'p asrlik tarixiy va madaniy rishtalar bog'lab turadi. Yaponiya mamlakatimizning yigirma yillik mustaqil taraqqiyoti davomida ko'plab muhim ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda do'stona yordam berayotganini o'zbekistonliklar yaxshi bilishadi va qadrlashadi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov jahonning yetakchi davlatlari rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib tabiiy ofat sodir bo'lgan kun — 11 martning o'zidayoq Yaponiya hukumati va xalqiga dahshatli fojia munosabati bilan o'zining chuqur hamdardligini bildirib, o'zbekistonliklar yapon xalqining boshiga tushgan falokat va o'rnini hech bir narsa bilan to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotishlarga sherik ekanligini qayd etdi.

O'zbekiston rahbariyatining qarori bilan Yaponiyada tabiiy ofat oqibatida jabrlanganlarga insonparvarlik yordami ko'rsatildi. Ushbu tadbirning xalqimiz tomonidan asrlar davomida saqlanib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan insonparvarlik, olijanoblik, o'zaro yordam va muruvvat kabi qadriyatlarni o'zida mujassam etib kelgan Navro'z ayyomi kunlarida amalga oshirilgani chuqur ramziy ma'noga egadir.

Mamlakatimiz tomonidan ko'rsatilgan ko'mak Yaponiyada yuksak baholandi. Yaponiya Bosh vaziri Naoto Kan va mamlakat tashqi ishlar vaziri Takeake Matsumoto O'zbekiston hukumatiga ma'naviy jihatdan dalda bo'lgan iliq so'zlari hamda ko'rsatilgan

insonparvarlik yordami uchun samimiy minnatdorlik bildirishdi. Yaponiyaning O'zbekistondagi favqulodda va Muxtor elchisi Yoshixisa Kuroda mazkur holat zamonlar mobaynida sinalgan ikki tomonlama do'stlik va sheriklik aloqalarining yana bir isboti bo'lganini, bu esa o'zaro munosabatlarning yanada kengayishi va mustahkamlanishidan dalolat ekanligini ta'kidladi.

XULOSA

O'zbekiston va Yaponiya davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini tahlil etish chog'ida quyidagi umumlashma xulosalarga kelindi:

1. Shu davrga qadar ikki mamlakatning asosiy hamkorlik yo'nalishlarini aytib o'tadigan bo'lsak quyidagilar asosiy o'rinda turadi.

— Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida (makroekonomika siyosatini shakllantirish, qonun chiqarish reformalarni sistemasi, sanoat standartlarini ishlab chiqish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash)

— Infrastrukturani rivojlantirish;

— Inson resurslarini rivojlantirishdan iborat.

2. Fikrimizcha, ikki davlat o'rtasidagi so'nggi rasmiy uchrashuv chog'ida imzolangan hujjatlar, erishilgan kelishuvlar serqirra hamkorlikni yanada mustahkamlashga, strategik sheriklikning sifat nuqtai nazaridan yangi pog'onaga ko'tarilishiga, o'zaro manfaatlar mushtarakligi yuksalishiga xizmat qiladi.
3. Yaponiyaning katta miqyosdagi sarmoyalari va bu qadar ijobiy yondashuvi har qanday insonni ham o'ylantirishi tabiiy. Bir necha O'zbekistonda yashovchi yaponiyaliklarning bu haqdagi fikrlari bilan qiziqqanimda turli qarashlarga duch keldik. Demak, hamkorlik aloqalari har ikki mamlakat tomonidan ham yaxshilanishiga alohida e'tibor berilmoqda va natijada turli sohalarda o'rnatilgan munosabatlar, loyihalar mustahkamlanib bormoqda.
4. Jurnalistika sohasida faoliyat yuritib kelayotgan tadqiqotchilar Yaponiya O'zbekistonga samarali strategik va madaniy hamkor sifatida ishonch qozonganligi va O'zbekiston kelajakda Yaponiya bilan hamkorlik qilishda ijobiy samaralarni ko'rishini takidlashdi. Biroq shu davrgacha ikki mamlakat jurnalistlari o'rtasida yaqin hamkorlik aloqalari, OAV mahsulotlarini importi va eksporti juda maqtanadigan darajada emas. Biznigcha, ikki davlat jurnalistlari o'rtasida doimiy ravishda turli anjumanlar, ijodiy mahoratni va malakasini oshirish bo'yicha treninglar o'tkazishni yo'lga qo'yish, har ikki mamlakat o'zi haqidagi hujjatli va boshqa turdagi madaniy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni tez-tez ayriboshlab turish maqsadga muvofiqdir. Bu ikki mamlakat aholisi o'rtasidagi aloqalarni ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

5. Bundan tashqari, savdo-sotiqni rivojlantirish masalasida ham o'zaro manfaat mavjud. Ma'lumki, mashhur Buyuk ipak yo'lining bir cheti Yaponiyaning chekka sohillariga borib taqalsa, yana bir uchi Yevropa bozoriga tutashib ketgan. Bugun ana shu savdo-sotiq munosabatlarini zamonga mos ravishda qayta tiklash dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston xalqaro miqyosda bu borada ko'plab amaliy ishlar qilmoqda.
6. Har qanday hamkorlikda ham yutuqqa erishish uchun har ikkala tomondan qiziqish va faollik talab etilishi tabiiy. Qachonki JICA bizga — yosh avlodga shunday katta eshiklarni ochib bergan bir paytda biz ham oqsayotgan jabhalarimizni isloh eta olishimiz zarur. Nafaqat Yaponiya o'z mutaxassislarini mamlakatimizga balki, O'zbekiston o'z mutaxassislarini Yaponiyaga malaka oshiruvchi emas, malaka almashuvchi sifatida yuborilishiga erishamiz deb o'ylaymiz.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, — bugun **biz yashayotgan XXI asr — intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr**. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa — bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar.

Yakuniy xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, O'zbekiston — Yaponiya mamlakatlari hamkorligining istiqbollari porloq. Barcha harakatlar zahirida esa xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish g'oyasi mujassamlashgan.